

## ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA HUQUQBUZARLIKLER PROFILAKTIKASI XIZMATI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

*Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi  
2-bosqich 213-guruh kursanti  
Raximboyev Abror Javlon o'g'li*



*Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi  
O'quv-saf qismi  
2-bosqich 4-otryad komandri leytenant  
Zokirov Muxriddin Zohidjon o'g'li*



**Аннотация:** В данной статье речь идет о деятельности инспекторов-профилакторий, входящих в состав отдела профилактики правонарушений органов внутренних дел, их задачах, а также о совершенствовании направления их деятельности и поиске решений проблем на основе зарубежного опыта.

**Ключевые слова:** предупреждение преступности, правоохранительная деятельность, общественная безопасность, защита конституции, национальная полиция, федеральное министерство внутренних дел

**Annotation:** This article is about the activities of preventive inspectors, who are part of the crime prevention department of the internal affairs bodies, their tasks, as well as improving the direction of their activities and finding solutions to problems based on foreign experience.

**Key words:** huquqbazarliklar profilaktikasi, , huquq-tartibot, jamoat xavsizligini taminlash, konstitutsiyani qo‘riqlash, Milliy politsiya, Federal IIV

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Ichki ishlar organlari huquqbazarliklar profilaktikasi bo’limi tarkibiga kiruvchi profilaktika inspektorlar faoliyati, uning vazifalari hamda xorijiy tajriba asosida uning faoliyat yo’nalishini takamillashtirish , muommolarga yechim topish haqida boradi.

**Kalit so‘zlar:** huquqbazarliklar profilaktikasi, , huquq-tartibot, jamoat xavsizligini taminlash, konstitutsiyani qo‘riqlash, Milliy politsiya, Federal IIV

Turli davlatlarda ma’muriy hududlarida huquqbazarliklar profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirish jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash faoliyati turlicha

usullar, yo'llar bilan ta'minlanadi. Ushbu sohada har bir davlat o'ziga xos tajribaga ega bo'lib, ularni o'rganish hamda yurtimizda huquqbazarliklar profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirishda jamoat tartibi saqlash va xavfsizligini ta'minlash tizimiga tatbiq etish bugunning dolzarb talablaridan biridir.

Har bir mamlakatning huquqbazarliklar profilaktikasi tizimi boshqa davlatlardan muayyan xususiyati bilan ajralib turadi. Ushbu xususiyatni Rossiya Federatsiyasi misolida ko'rib chiqamiz. Mamlakat konstitutsiyasining 72-moddasiga muvofik qonuniylik, huquq-tartibot, jamoat xavsizligini taminlash, shuningdek, jinoyatchilikni oldini olish Rossiya Federatsiyasi va subektlarining birgalikdagi boshkaruvida amalga oshiriladi. Rossiya Federatsiyasi IIV Federatsiya tarkibiga kiruvchi respublikalar II V lari, o'lkalari, viloyatlar, federal darajadagi shaxarlar ichki ishlar bosh boshqarmalari, boshqarmalar va bo'limlar, avtonom viloyatlar va okruglar tuman va shaxar ichki ishlar organlari temir yo'l, xavo va suv transporti tarmok ichki ishlar organlari, talim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlari, ichki qo'shinlar xamda tizimga kiruvchi boshka tarkibiy tuzilmalarning faoliyatiga raxbarlik qiladi. Rossiya Federatsiyasining 2016-yil 23-iyundagi "Rossiya Federatsiyasida huquqbazarliklarning oldini olish tizimining asoslari to'g'risida"gi 182-FZ-tonli Federal qonuni qabul qilindi. Ushbu Federal qonunni tartibga solish predmeti - Rossiya Federatsiyasida huquqbazarliklarning oldini olish sohasida yuzaga keladigan jamoatchilik munosabatlari etib belgilandi. Ushbu qonunda Huquqbazarlikka quyidagicha ta'rif berilgan: huquqbazarlik - jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladigan noqonuniy xatti-harakatni (harakatni, harakatsizlikni) tashkil etuvchi jinoyat yoki ma'muriy huquqbazarlik.

Yevropa mamlakatlari orasida ma'muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash sohasida yana bir o'ziga xos tizim Germaniyada qaror topgan. Germaniya davlat boshqaruvi tizimida politsiya asosiy o'rnlardan birini egallab, o'z ichiga Federal IIV va O'lkalar II V larini qamrab oladi. O'lkalar II V larini Federal IIV ning ko'rsatmalarini so'zsiz bajaradi, Federal IIV esa subyektlar vakolatiga kiramagan vazifalarga aralasha olmaydi. Mamlakatda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini asosan o'lkalarning politsiyalari amalga oshiradi. Mamlakatda jinoyatchilikga qarshi kurash, huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirish, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimi markazlashmagan bo'lib, o'lkalar huquq tartibot xizmatlari maxsus tartib bo'yicha davlat organlaridan farqlanadi. O'lkalar politsiyalari tartibni saqlash, kriminal, suvda tartibni saqlash, safarbarlik, konstitutsiyani qo'riqlash kabi politsiya idoralaridan tashkil topgan bo'lib, ular ichida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bilan tartibni saqlash politsiyasi shug'ullanadi. Mamlakatning har bir o'lkasida o'z qonunchiligi va idoraviy hujjatlari amal qilsada, tartibni saqlash politsiyasining faoliyati hamma o'lkalarda bir xil.

Yevropa mamlakatlari orasida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash sohasida yana bir o'ziga xos jihatga ega bo'lgan tizim Fransiyada shakllangan. Fransiyaning to'liq mahalliy budjet hisobidan ta'minlanadigan munitsipal politsiyasi shaharlar va boshqa aholi turar joylarida jamoat tartibini saqlaydi hamda xavfsizligini ta'minlaydi va bu borada ular Milliy politsiya bilan uzlucksiz hamkorlikda faoliyat olib boradilar. Fransiya Milliy politsiyasiga politsianing barcha funksiyalari, jumladan jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash funksiyasi ham yuklatilgan bo'lib, ularni samarali ta'minlash maqsadida, uning tarkibida 20ga yaqin bosh boshqarma, boshqarma, markaz, institut va xizmatlar faoliyat olib boradi. Milliy politsiya tarkibidagi Jamoat xavfsizligi bosh boshqarmasining asosiy vazifasi bevosita jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashdan iborat.

Yevropa mamlakatlari orasida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash sohasida yana bir o'ziga xos jihatga ega bo'lgan tizim Buyuk Britaniyada shakllangan.

Buyuk Britaniyada politsianing tashkil etilishi va faoliyati quyidagi qonunlar bilan tartibga solinadi: "Politsiya to'g'risida" 1964 yil, "Shotlandiya politsiyasi to'g'risida" 1967 yil; Politsiya va jinoiy dalillar 1984, Politsiya 1996, Shimoliy Irlandiya politsiyasi 2000, Politsiya islohoti 2002, Jiddiy uyushgan jinoyatchilik va politsiya 2005 ., 2011 yilda "Politsiya islohoti va ijtimoiy javobgarlik to'g'risida" va boshqalar. Politsianing jinoiy-protsessual faoliyati "Jinoyat protsessual va jamoat tartibini saqlash to'g'risida" gi qonun bilan tartibga solinadi.

Buyuk Britaniyada to'rt turdag'i politsiya tuzilmalari mavjud.

So'nggi o'n yarim yil ichida Yaponiyada jinoyatchilik statistikasi barqaror ravishda ko'tarilib bordi. Ammo shunga qaramay, Yaponiya jamiyati sanoati rivojlangan mamlakatlar orasida eng xavfsiz hisoblanadi. Mavjud statistik ma'lumotlarga ega bo'lgan dunyoning 137 mamlakati ro'yxatida, qamoq jazosiga hukm qilinganlar soni bo'yicha Yaponiya 107-o'rinni egallab turibdi. Qo'shma Shtatlarda har 100 ming aholiga 737 mahbus to'g'ri keladi (birinchi o'rin), Rossiyada - 611 (ikkinchi) va Yaponiyada - 62. Bu Angliyadan 2,5 baravar kam, Avstraliyadan 2 baravar kam va Kanadaga qaraganda 1,5 baravar kam. Jibuti va Burkina-Faso darajalari atrofida (Uolmsli, 2).

Yaponiyada jinoyatchilikka ta'sirining ta'kidlangan o'ziga xos xususiyatlari jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligining asosiy omillari - intensiv ta'lim ishlari va tezkor-qidiruv va tergov faoliyatining yuqori natijalari bilan birlashtirilgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lex.uz (normativ hujjatlarbazasi)
2. www.google.com (butun jahon qidiruv tizimi)

3. Rossiya Federatsiyasining 2016-yil 23-iyundagi "Rossiya Federatsiyasida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimining asoslari to‘g‘risida"gi 182-FZ-sonli Federal qonun

4. <https://www.egm.gov.tr> (turkiya davlati politsiyasining rasmiy malumotlar markazi)

5. <https://buhconsul.ru/> (Britaniya davlati politsiyasining rasmiy malumotlar markazi)

6. <https://uz.wikipedia.org/> (Qidiruv resurslar bazasi)

**Ilmiy rahbar – Djamatov Mustafa Xatamovich**, IIV Akademiyasi Axborot texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi